

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba.....	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA KIRITILGAN XORIJIY INVESTITSİYALAR PROGNOZI



Xatamov Nurbek Ochildiyevich
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmini prognozlashda ARIMA modelidan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan. Vaqtli qator statsionarligi kengaytirilgan Dikkey-Fyuller testi yordamida tekshirilib, integratsiyalashgan avtoregressiya va sirg'aluvchi o'rtacha modeli qurilgan. Natijada ARIMA(3,1,1)(0,1,0)4 modeli ushbu turdagi modellarga qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi aniqlangan va modeldan foydal-anib 2027-yilgacha hudud iqtisodiyotiga jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar hajmi prognoz qilingan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, vaqtli qatorlar, prognozlash, ARIMA modeli, Dikkey-Fyuller testi.

Abstract: This article examines the potential of using the ARIMA model to forecast the volume of foreign investments in the economy of the Surxondaryo region. The stationarity of the time series is verified using the extended Dickey-Fuller test, and an integrated autoregression and moving average model is constructed. As a result, it was found that the ARIMA(3,1,1)(0,1,0)4 model meets all the requirements posed to such models, and using this model, the volume of foreign investments in the regional economy is projected up to 2027.

Key words: foreign investments, time series, forecasting, ARIMA model, Dickey-Fuller test.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования модели ARIMA для прогнозирования объема иностранных инвестиций в экономику Сурхандарьинской области. Стационарность временного ряда проверяется с помощью расширенного теста Дики-Фуллера, строится модель интегрированной авторегрессии и скользящего среднего. В результате установлено, что модель ARIMA(3,1,1)(0,1,0)4 отвечает всем требованиям, предъявляемым к подобным моделям, и с помощью данной модели прогнозируется объем иностранных инвестиций в экономику региона до 2027 года.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, временной ряд, прогнозирование, модель ARIMA, тест Дики-Фуллера.

KIRISH

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarida jiddiy pasayish kuzatilmoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston milliy iqtisodiyotga katta miqdorda investitsiyalar kiritilishiga ko'maklashadigan chuqur tarkibiy islohotlar o'tkazishga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasining 2025-yilgacha mo'ljallangan investitsiya va sanoat siyosati strategiyasi aynan mamlakatda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiyalarning ichki manbalarini faollashtirish va investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, samarali operatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va jahon standartlariga muvofiqligini ta'minlash sanoatni rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanib, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, tarmoqlarning innovatsion salohiyatini oshirish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish ham strategiyaning asosiy vazifalari sifatida qayd etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Xorijiy investitsiya" va unga bog'liqli tushunchalar ko'pchilik xorij va o'zbek iqtisodchi olimlari tomonidan ilmiy asoslanib, iqtisodiy termin sifatida foydalanib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga asosan "chet el investitsiyalari-chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar" ^[1] deb, ta'riflangan.

M. Semochkina fikricha, “xorijiy investitsiyalar – chet ellik investorlar tomonidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga joylashtiriladigan pul qiymatidagi mulkiy va nomulkiy huquqlardir” [2].

N. Levensev, G. Kostyuninalar esa, “xorijiy investitsiyalar – muayyan bir mamlakat rezidentlarining aktivlardan foydalanish ustidan nazoratni qo‘lga kiritish uchun boshqa mamlakatlarning aktivlariga egalik qilishini anglatadi”-degan ta’rifni berishgan [3].

Ayrim iqtisodchi olimlar “xorijiy investitsiyalar – uzoq muddat mobaynida daromadga ega bo‘lish maqsadida o‘zga mamlakatga kapital joylashtirishni anglatadi. Bu turdagi investitsiyalar asosiy kapitalni yangilash va kengaytirish, investitsiya siyosatini amalga oshirish, milliy iqtisodiyotning yuksalishi va rivojlanishini ta’minlash, bozorni raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar bilan to‘ldirish uchun mamlakat resurslarini sezilarli darajada oshiradigan qo‘shimcha kapital manbai”dir, degan ta’rifni ham keltirishadi [4].

O‘zbek iqtisodchi olimlaridan A. Sh. Bekmurodov, Ya. K. Karriyeva va boshqalar fikricha, “xorijiy investitsiyalar-bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir” [5].

N. G‘. Karimov va R. X. Xojimatovlar “xorijiy investitsiya-chet el jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalarga aytilib, xalqaro tashkilotlar va chet el davlatlari tomonidan amalga oshiradi”[6]-degan fikrni berishgan.

G. Karimova “xorijiy investitsiyalar iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa turdagi samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga xorijiy kapitalning kiritilishidir” [7] deb ta’riflasi, N. Karimov unga “mutlaq boshqa mamlakat iqtisodiyotiga ichki investitsiyalar bilan taqqoslaganda, yuqori darajadagi daromadni ko‘zlab joylashtiriladigan resurslar” sifatida qaraydi [8].

N. Qo‘ziyeva esa, xorijiy investitsiyalarni “kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko‘rinishdagi boyliklar (ko‘char, ko‘chmas mol-mulk, intellektual boyliklar va shu kabilar) va ulardan olingan daromadlar (foyda, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, royalti, texnik ta’minot va boshqa mukofotlar)ning qo‘yilishi” deb tushunadi [9].

Iqtisodchi olimlar D. G‘ozibekov va E. Nosirovlar “chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot subyekti kapitalini o‘zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog‘lash bo‘lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab kapital ko‘chishi yuz beradi”- degan fikrni bildirishadi [10].

Shunday qilib, yuqoridagilardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, haqiqatdan ham hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalar mohiyatini aniqlash maqsadida e’tiborga loyiq ishlar qilinib, ularda milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo‘llari asoslangan, makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish orqali investitsiya jarayonlari va iqtisodiy o‘sishning faol sur’atlarini ta’minlash imkoniyatlari o‘rganilgan.

Ammo yuqoridagi tadqiqotlarda hudud iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini zamonaviy ekonometrik modellar yordamida prognoz qilish yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda hudud iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalari hajmi istiqbolini prognozlash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kuzatuvlar yordamida olingan iqtisodiy vaqtli qatorlar kamdan kam holatlarni hisobga olmaganda odatda statsionar bo‘lmaydi. Bunday vaqtli qatorlarda vaqtga bog‘liq bo‘lgan tasodifiy bo‘lmagan tarkibiy qismlar mavjud bo‘ladi. Agar vaqtli qatorning tasodifiy qoldiqlari statsionar qatorni tashkil etsa, u holda vaqtli qator statsionar bo‘lmagan qator bo‘ladi. Bunday qatorlarni tavsiflashda integratsiyalashgan avtoregressiya va sirg‘aluvchi o‘rtacha (Autoregressive Integrated Moving Average – ARIMA) modeli qo‘llaniladi.

ARIMA modellari integratsiyalangan vaqtli qatorlarni modellashtirishga imkon beradi. Agar vaqtli qator statsionar bo‘lmasa va uning -tartibli farqlari statsionar qatorni tashkil etsa, u holda ushbu vaqtli qator -tartibli integratsiyalangan hisoblanadi [11]. Boshqacha qilib aytganda, agar vaqtli qator statsionar bo‘lmasa, ARIMA model tuzish uchun uning -tartibli (statsionar bo‘lgunga qadar) farqlariga o‘tiladi.

ARIMA modeli odatda ARIMA (,) kabi ifodalaniib, – avtoregressiya tartibini, – sirg‘aluvchi o‘rtacha tartibini va esa farqlar tartibini bildiradi. Model quyidagi umumiy ko‘rinishga ega:

$$\Delta^d Y_t = c + \sum_{i=1}^p \alpha_i \Delta^d Y_{t-1} + \sum_{j=1}^q \beta_j \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t$$

bu yerda:

c, α_i, β_j – model parametrlari;

$\Delta^d - d$ tartibli farqlar operatori (masalan, $\Delta^1 Y_t = Y_t - Y_{t-1}$ – birinchi tartibli farqlar) [11].




Modelni baholashda dastavval vaqtli qatorning statsionar ekanligi tekshiriladi. Agar u statsionar bo'lmasa vaqtli qatorning birinchi farqlariga o'tiladi, agar u ham statsionar bo'lsa navbatdagi bosqichga kirishiladi.

Modelni baholash uchun modelni identifikatsiya qilish; model parametrlarini baholash va uning adekvatligini tekshirish hamda prognoz qilish kabi bosqichlarni amalga oshirish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

2019-yil I chorak- 2023-yil II chorak davri bo'yicha Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga choraklar bo'yicha jalb etilgan investitsiyalar hajmlari (mlrd. so'm)

Hudud iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmini modellashtirish hamda 2027-yilga qadar prognoz etish maqsadida dastlab vaqtli qator statsionarligi kengaytirilgan Dikkey-Fyuller testi bilan tekshirildi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Kengaytirilgan Dikkey-Fyuller testi natijalari¹

Augmented Dickey-Fuller test for Xorijiy_invest
testing down from 6 lags, criterion AIC
sample size 14
unit-root null hypothesis: $a = 1$


test without constant
including 3 lags of $(1-L)y$
model: $(1-L)y = (a-1)y(-1) + \dots + e$
estimated value of $(a - 1)$: 0.0243144
test statistic: $\tau_{nc}(1) = 0.537685$
asymptotic p-value 0.8322
1st-order autocorrelation coeff. for e: 0.067
lagged differences: $F(3, 10) = 128.243 [0.0000]$

test with constant
including 3 lags of $(1-L)y$
model: $(1-L)y = b_0 + (a-1)y(-1) + \dots + e$
estimated value of $(a - 1)$: -0.658802
test statistic: $\tau_c(1) = -0.641962$
asymptotic p-value 0.8589
1st-order autocorrelation coeff. for e: 0.163
lagged differences: $F(3, 9) = 37.218 [0.0000]$

1-jadvaldan shu ma'lum bo'lmoqdaki, o'zgarmassiz hamda o'zgarmasli test natijalariga ko'ra -qiymat 0,05 ahamiyatlilik darajasidan katta. Shu sababli vaqtli qatorning 1-farqlariga o'tildi. Navbatdagi tajribalarda vaqtli qatorning 1-farqlari kengaytirilgan Dikkey-Fyuller testi bilan tekshirilganda -qiymat 0,05 ahamiyatlilik darajasidan kichikligi aniqlandi. Demak, tajriba qilinayotgan vaqtli qator birlik ildizga ega. Bunday vaqtli qatorlarni ARIMA modellari bilan modellashtirayotganda integratsiyalanganlik tartibi deb olinadi^[12].

ARIMA modellari, tartibini aniqlash maqsadida ACF va PACF korrelogrammalari tuzildi (2-rasm).

¹ Manba: Gretl dasturiy ta'minoti yordamida shakllantirildi.



2-rasm: Vaqtli qator avtokorrelyatsiya va xususiy avtokorrelyatsiya funksiyalari korrelogrammasi²

2-rasmdagi korrelogrammada avtokorrelyatsiya funksiyasi 4-lagda, xususiy avtokorrelyatsiya funksiyasi 3-lagi ahamiyatli bo'lib, ulardan ikkalasi ham bir maromda kamavib borayotganligi kuzatilmadi. Bundan ularning biror aniq model tartibiga ishora qilmayotganligi bilib olish mumkin.

Gretl dasturiy ta'minotida ARIMA modellarining turli tartiblari tajriba qilib ko'rildi. ARIMA(3,1,1)(0,1,0)₄ model iqtisodiy jarayonga eng mos model ekanligi aniqlandi.

2-jadval: ARIMA modellarini baholash natijalari³

Model 1: ARIMA, using observations 2020:2–2023:2 (T = 13)

Dependent variable: (1-L)(1-Ls) y1

Standard errors based on Hessian

	Coefficient	Std. Error	z	p-value	
const	45.1375	14.1418	3.192	0.0014	***
phi_1	-0.578405	0.223690	-2.586	0.0097	***
phi_2	-0.659762	0.181815	-3.629	0.0003	***
phi_3	-0.704444	0.192144	-3.666	0.0002	***
theta_1	-1.00000	0.362804	-2.756	0.0058	***
Mean dependent var	-12.48462		S. D. dependent var	1050.639	
Mean of innovations	-154.3002		S. D. of innovations	441.1166	
R-squared	0.942866		Adjusted R-squared	0.923821	
Log-likelihood	-101.2265		Akaike criterion	214.4530	
Schwarz criterion	217.8427		Hannan-Quinn	213.7562	

		Real	Imaginary	Modulus	Frequency
AR					
	Root 1	-1.2187	0.0000	1.2187	0.5000
	Root 2	0.1410	-1.0700	1.0793	-0.2291
	Root 3	0.1410	1.0700	1.0793	0.2291
MA					
	Root 1	1.0000	0.0000	1.0000	0.0000


² Manba: Gretl dasturiy ta'minoti yordamida shakllantirildi.

³ Manba: Gretl dasturiy ta'minoti yordamida shakllantirildi.



2-jadvaldagi modelni quyidagicha yozish mumkin:


$$\Delta y_t = 45,14 - 0,58\Delta y_{t-1} - 0,66\Delta y_{t-2} - 0,70\Delta y_{t-3} - 1e_{t-1} \quad (1)$$



3-rasm: Qoldiqlarning normal taqsimot qonuniga bo'ysunishi gistogrammasi⁴

3-rasmdan $\chi^2 = 0,565$ ga teng bo'lib, p-qiyamat 0,05 ahamiyatlilik darajasidan katta qiymatni ($p = 0.75376$) qabul qilgan.

Shuningdek, model bo'yicha qoldiqlarda avtokorrelatsiya mavjud emas (4-rasm).



4-rasm: Qoldiqlar korrelogrammasi⁵

4 Manba: Gretl dasturiy ta'minoti yordamida shakllantirildi.

5 Manba: Gretl dasturiy ta'minoti yordamida shakllantirildi.




(1) modeldan foydalanib 2027-yilga qadar prognoz qiymatlar ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval: Modelning ishonch intervallari va prognoz qiymatlari⁶

For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$

Obs	y	prediction	std. error	95% interval
2019:1	80.9000	undefined	undefined	
2019:2	848.000	undefined	undefined	
2019:3	1546.30	undefined	undefined	
2019:4	6956.50	undefined	undefined	
2020:1	740.600	undefined	undefined	
2020:2	1407.60	1465.76	undefined	
2020:3	1769.80	1956.20	undefined	
2020:4	5480.60	6402.63	undefined	
2021:1	654.800	988.100	undefined	
2021:2	1943.40	2205.59	undefined	
2021:3	2593.60	2579.41	undefined	
2021:4	4078.80	4790.03	undefined	
2022:1	941.900	706.801	undefined	
2022:2	2249.80	2423.09	undefined	
2022:3	2905.20	3590.54	undefined	
2022:4	4441.90	3987.04	undefined	
2023:1	1278.00	977.176	undefined	
2023:2	2747.20	2426.15	undefined	
2023:3	undefined	3102.61	441.117	(2238.04, 3967.18)
2023:4	undefined	4858.25	509.590	(3859.47, 5857.03)
2024:1	undefined	1784.83	529.398	(747.230, 2822.43)
2024:2	undefined	3401.40	532.723	(2357.28, 4445.51)
2024:3	undefined	3590.47	919.840	(1787.62, 5393.32)
2024:4	undefined	5414.17	965.518	(3521.79, 7306.55)
2025:1	undefined	2440.14	1006.18	(468.073, 4412.21)
2025:2	undefined	4204.31	1020.58	(2204.01, 6204.61)
2025:3	undefined	4327.31	1383.10	(1616.49, 7038.13)
2025:4	undefined	6154.66	1401.72	(3407.33, 8901.98)
2026:1	undefined	3250.95	1448.16	(412.618, 6089.29)
2026:2	undefined	5151.41	1478.28	(2254.03, 8048.79)
2026:3	undefined	5279.43	1792.23	(1766.73, 8792.13)
2026:4	undefined	7097.24	1797.22	(3574.74, 10619.7)
2027:1	undefined	4232.55	1837.35	(631.410, 7833.70)
2027:2	undefined	6246.02	1881.36	(2558.62, 9933.42)
2027:3	undefined	6422.48	2140.75	(2226.68, 10618.3)
2027:4	undefined	8243.04	2141.46	(4045.87, 12440.2)

6 Manba: Gretl dasturiy ta'minoti yordamida shakllantirildi.



5-rasm: Vaqtli qator haqiqiy, nazariy, prognoz qiymatlari va ishonch intervallari⁷

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, vaqtli qator uchun ARIMA(3,1,1)(0,1,0)₄ model shakli adekvat hisoblanib, prognozlashda ushbu model shaklidan foydalanish mumkinligini bildiradi.

2027-yil davomida jami 8243,04 mlrd. so'm xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, ya'ni 2022-yilga nisbatan qariyb 2 barobarga oshishini taxmin qilish mumkin.

Yuqoridagilar hisob-kitoblarning barchasi viloyat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha quyidagi takliflarni kiritishga imkon beradi:

- hudud iqtisodiyotini yanada modernizatsiyalashning uzoq muddatli maqsadlariga erish uchun energetika, transport, telekommunikatsiya, qurilish materiallari sanoati, ijtimoiy infratuzilmalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish;
- hududning o'rta muddatga mo'ljallangan investisiya va sanoat siyosati strategiyasini amalga oshirishda xususiy biznesni rivojlantirish uchun investisiya muhiti va shart-sharoitlarni yaxshilashga erishish;
- hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari va mexanizmlarini, usullarini takomillashtirish;
- va nihoyat, hudud ijtimoiy-iqtisodiy tizimi barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarning ichki manbalarining tashqi manbalariga nisbatan ustunligi saqlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 9-dekabr.
2. Семочкина М. А. Инвестиционная деятельность с участием иностранных инвесторов в Российской Федерации (правовой аспект). Дисс. на соиск. уч. ст. канд. юрид. наук. – М.: МГУ. 2014, С. 152.
3. Левенцев Н. Н., Костюнина Г. М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран. Учебник. – М.: Экономист, 2007. – 367 с.

⁷ Manba: Gretl dasturiy ta'minoti yordamida shakllantirildi.



4. Оксютик Г. П. Иностранные инвестиции в России. Монография. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. – 220 с.
5. Bekmurodov A. Sh., Karriyeva Ya. K., Nematov I. U., Nabiyeu D. H., Kattayev N. T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 166 b.
6. N. G'. Karimov va R. X. Xojimatov. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. –T.: TDIU, 2011. –801 b.
7. Karimova G. A. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarini jalb qilishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2019. 13-b.
8. Karimov N. G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
9. Qo'ziyeva N. R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008. 11-bet.
10. G'ozibekov D, Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: "Iqtisod-Moliya". 2007, -B. 92
11. Эконометрика: учебник /И. И. Елисеева, СВ. Курышева, Т. В. Костеева и др.; под ред. И. И. Елисеевой. – 2-э изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 576 с.
12. Turayev B. E., Xatamov O. Q. ARIMA modeli yordamida qurilish ishlari hajmini prognoz qilish (Surxondaryo viloyatida misolida). "UzBridge" elektron jurnali, 2021-yil 1-son, 74–84-betlar.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

